



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 9, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 9, ISSUE 2



ТОШКЕНТ-2026

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат техника университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат университети

**Махкамova Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодири Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ермегов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Андижон давлат университети

**Рашидов Ойбек Расулович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Озарбайжон давлат университети

**Саипова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайдон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Курбанов Бахтияр Журабаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Наманган давлат университети

**Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
*Масъул котиб*

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Баҳадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Юсупов Аҳмеджон Шоназарович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Urganch davlat universiteti

**Тиллажаева Хуршида Джумаваевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Тошкент давлат техника университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
*Масъул котиб*

**Исоқов Бахтиёр Робидинович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Наманган давлат университети

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети


**Турсунова Юлдуз Бобоқуловна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Азаматова Гулмира Байирбековна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Каримжонов Жасурбек Мухторжонович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Ўзбекистон Миллий университети

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


<b>1. Ольга Кобзева</b> БАРОНЫ РИХТГОФЕНЫ: ИСТОРИКИ И ГЕОГРАФЫ.....	5
<b>2. Oybek Rashidov</b> O‘ZBEKISTON SSRNING TASHKIL TOPISHI.....	15
<b>3. Sevara Pulatova</b> O‘ZBEKISTON MUZEYLARI INNOVATSION RIVOJLANISH YO‘LIDA.....	21
<b>4. Ойдин Маннопова</b> ПЕРИОД СТАБИЛИЗАЦИИ И РОСТА ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО И ИНВЕСТИЦИОННОГО СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ РЕСПУБЛИКОЙ УЗБЕКИСТАН И РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИЕЙ (2000 – 2008 гг.).....	27
<b>5. Faxriddin Yormatov</b> ALISHER NAVOIYNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O‘RNI VA DIPLOMATIK QARASHLARI.....	32
<b>6. Feruza Atajanova</b> OLIY TA‘LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR MOHIYATI: YUTUQLAR, KAMCHILIKLAR VA NATIJALAR.....	37
<b>7. Ikrom Djurayev</b> MARKAZIY OSIYODA QADIMGI KO‘CHMANCHI VA O‘TROQ AHOLINING O‘ZARO MUNOSABATLARI.....	42
<b>8. Muslima Bazarova</b> O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARI TADBIRKORLIGINI MOLIYAVIY QO‘LLAB- QUVVATLASHDA BANKLARNING O‘RNI.....	49
<b>9. Diyora Chorshanbiyeva</b> YOSHLARGA OID DAVLAT DASTURLARI VA ULARNING NATIJAVIY TAHLILI.....	56
<b>10. Муродилла Хайдаров</b> ФРЕДЕРИК СТАПП [1] МАРКАЗИЙ ОСИЁНИ ҚАЙТА КАШФ ЭТИБ... [2].....	62
<b>11. Xamro Rahmonov</b> O‘ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNI TA‘MINLASHGA OID DAVLAT SIYOSATI.....	69
<b>12. Umrbek Salayev</b> QADIMGI XORAZM: TARIXIY MANBALAR VA ILMIY TALQINLAR TAHLILI.....	75



**Diyora Chorshanbiyevna Chorshanbiyeva,**  
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,  
mustaqil izlanuvchi

## YOSHLARGA OID DAVLAT DASTURLARI VA ULARNING NATIJAVIY TAHLILI

**For citation:** Diyora Ch. Chorshanbieva. ANALYSIS OF STATE PROGRAMS FOR YOUTH AND THEIR RESULTS. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 2.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18700976>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida yoshlar siyosatini amalga oshirishga qaratilgan davlat dasturlari, ularning huquqiy asoslari hamda amaliy natijalari ilmiy-tahliliy jihatdan o‘rganiladi. Tadqiqot jarayonida yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ta‘lim, bandlik, ijtimoiy faollik va tadbirkorlik sohalaridagi ishtirokini oshirishga qaratilgan davlat dasturlarining samaradorligi tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiya, BMT, “Yoshlar dasturi”, “Yoshlar daftari”, IELTS, demografik struktura.

---

**Диёра Чоршанбиевна Чоршанбиева,**  
Денаувский институт предпринимательства и педагогики,  
самостоятельный исследователь

## АНАЛИЗ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ПРОГРАММ ДЛЯ МОЛОДЕЖИ И ИХ РЕЗУЛЬТАТОВ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье с научно-аналитической точки зрения изучаются государственные программы, направленные на реализацию молодежной политики в Республике Узбекистан, их правовые основы и практические результаты. В ходе исследования анализируется эффективность государственных программ, направленных на поддержку молодежи, повышение ее участия в сферах образования, занятости, социальной активности и предпринимательства.

**Ключевые слова:** Конвенция “О правах ребенка”, ООН, “Молодежная программа”, “Молодежная тетрадь”, IELTS, демографическая структура.

---

**Diyora Ch. Chorshanbiyeva,**  
Denou Institute of Entrepreneurship and Pedagogy,  
independent researcher

## ANALYSIS OF STATE PROGRAMS FOR YOUTH AND THEIR RESULTS

## ABSTRACT

This article examines state programs aimed at implementing youth policy in the Republic of Uzbekistan, their legal basis, and practical results from a scientific and analytical perspective. The study analyzes the effectiveness of state programs aimed at supporting young people and increasing their participation in education, employment, social activity, and entrepreneurship.

**Index Terms:** Convention “On the Rights of the Child” UN, “Youth Program”, “Youth Notebook”, IELTS, demographic structure.

1. **Dolzarbli.** Bugungi globallashuv va tezkor ijtimoiy-siyosiy jarayonlar sharoitida yoshlar masalasi har bir davlat taraqqiyotining strategik ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Jamiyatning intellektual salohiyati, iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy barqarorligi bevosita yosh avlodning bilim darajasi, dunyoqarashi, fuqarolik pozitsiyasi hamda ijtimoiy faolligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu boisdan ham mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotining barcha bosqichlarida yoshlar masalasi davlat siyosatining markaziy yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etib kelinmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini ta‘minlash, salohiyatini ro‘yobga chiqarish masalalari alohida dolzarblik kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘zining nutq va asarlarida yoshlarni mamlakatning eng katta boyligi, kelajagi va tayanchi sifatida ta‘riflab, davlat siyosatida yoshlar manfaatlarini ustuvor yo‘nalish darajasiga ko‘tardi [1]. Davlat rahbarining ta‘kidlashicha, yoshlarning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashi, mustaqil fikrlashi, tashabbuskor bo‘lishi va vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi Yangi O‘zbekistonni barpo etishning muhim sharti hisoblanadi. Shu jihatdan qaralganda, yoshlar masalasiga oid davlat dasturlari nafaqat ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmi, balki jamiyatni modernizatsiya qilish, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli strategik vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mamlakatda yoshlar siyosatini tizimli amalga oshirish maqsadida qabul qilingan davlat dasturlari yoshlarning ta‘lim olish, band bo‘lish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish, bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish kabi muhim yo‘nalishlarni qamrab oladi. Prezident nutqlarida qayd etilganidek, yoshlar bilan ishlash faqat alohida tadbirlar bilan cheklanmasdan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan, natijaga xizmat qiladigan kompleks tizim asosida olib borilishi zarur. Shu sababli yoshlar bilan bog‘liq davlat dasturlari davlat siyosatining muhim amaliy ifodasi sifatida shakllandi. Davlat dasturlarining samaradorligini baholash masalasi bugungi kunda ilmiy-tadqiqotlar uchun muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki har qanday dastur faqat normativ hujjat sifatida emas, balki real natijalar orqali o‘z tasdig‘ini topishi lozim. Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘z chiqishlarida qabul qilinayotgan qarorlar va dasturlar hayotimizda qanday o‘zgarishlar qilayotgani bilan baholanishi kerakligini alohida ta‘kidlaydi. Mazkur yondashuv yoshlarga oid davlat dasturlarining natijaviy tahlilini amalga oshirish, ularning jamiyat rivojiga ta‘sirini ilmiy asosda o‘rganishni taqozo etadi.

Bugungi kunda yoshlar masalasiga oid davlat dasturlari orqali minglab yoshlarning bandligi ta‘minlanmoqda, ularning tadbirkorlik tashabbuslari qo‘llab-quvvatlanmoqda, ta‘lim olish imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar bilan manzilli ishlash mexanizmlarining joriy etilishi davlat siyosatining insonparvarlik mohiyatini yanada kuchaytirmoqda. Har bir yoshning muammosiga individual yondashish, ularning jamiyatdagi o‘rnini topishiga ko‘maklashish bugungi yoshlar siyosatining muhim tamoyillaridan biri sifatida shakllanmoqda.

2. **Metodlar.** Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, ob‘yektivlik, ilmiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik, statistik tadqiqot, materialni tanlash va tasniflash tamoyillari asosida yoritilgan.

3. **Tadqiqot natijalari.** Yoshlarga oid davlat siyosati har bir mustaqil davlatda jamiyatning ijtimoiy barqarorligini, iqtisodiy salohiyatini va siyosiy taraqqiyotini ta‘minlashda muhim strategik yo‘nalish sifatida qaraladi. U zamonaviy jamiyatda yoshlarning salohiyatini to‘la ro‘yobga chiqarish, ularni ijtimoiy, huquqiy va ma‘naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga oladi.

Yoshlarga oid davlat siyosati tushunchasi ijtimoiy fanlarda yoshlarni jamiyatning faol sub'ektlari sifatida belgilab beradi va ularning huquqiy maqomi, erkinliklari hamda davlat tomonidan yaratiladigan imkoniyatlar majmuini o'rganadi. Bu yondashuv yoshlarni jamiyat hayotiga keng jalb etish orqali ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotga erishishning asosiy omili sifatida ko'riladi. O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy negizlari mustaqillik yillaridan boshlab shakllangan bo'lsa, u 1991-yil 20-noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonun bilan tizimli asosga ega bo'ldi [2]. Ushbu qonun yoshlarga davlat siyosati orqali ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va tashkiliy sharoitlarni yaratishni belgilaydi. Qonunda yoshlarga beriladigan huquqiy kafolatlar, davlatning yoshlar oldidagi majburiyatlari, yoshlarning ijtimoiy proteksiyasi hamda ularning jamiyatda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar belgilangan bo'lib, bu hujjat tizimli yoshlar siyosatining asosiy normativ-huquqiy hujjatidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ham yoshlarni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida himoya qiladi. Konstitutsiyaning tegishli moddalari bolalar va yoshlar huquqlarini kafolatlashga qaratilgan bo'lib, davlat yoshlar manfaatlarini himoya etish, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va davlat boshqaruvida ishtirokini ta'minlash bo'yicha prinsipial yondashuvni nazarda tutadi. O'zbekiston Konstitutsiyasidagi bu normalar xalqaro huquq me'yorlari, xususan, "Bola huquqlari to'g'risida"gi BMT konvensiyasi bilan mos keladi. Prezident ta'kidlaganidek, yoshlar ijtimoiy taraqqiyot, ma'naviy-axloqiy tiklanish hamda davlat boshqaruvida faol rol o'ynashi lozim va bu holat huquqiy asosda mustahkamlanishi shart. Yoshlarga oid siyosatning huquqiy bazasi 2016-yilda qabul qilingan yangi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-406) bilan yanada takomillashdi. Mazkur qonun yoshlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish, ularning huquq va erkinliklarini kafolatlash, ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash hamda yoshlarning ta'lim olish va bandligini oshirish kabi masalalarni o'z ichiga oladi [3]. Qonun davlat organlari va nodavlat tashkilotlarining yoshlar siyosatini amalga oshirish bo'yicha vazifalarini ham belgilaydi, yoshlarning ijtimoiy himoyasi, huquqiy ko'mak va salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan kompleks choralarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, normative-huquqiy asosga Prezident farmonlari va hukumat qarorlari orqali yoshlar siyosatini amalga oshirish mexanizmlari qo'shimcha tashkiliy mexanizmlar bilan mustahkamlab boriladi. Masalan, Prezidentning yoshlarga oid siyosatning samaradorligini oshirish va yoshlar tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha farmonlari yoshlar sektoridagi huquqiy institutlar faoliyatini yaxshilashga xizmat qiladi. Bu hujjatlar yoshlar bilan ishlash tizimini yagona strategik yo'nalish bo'yicha muvofiqlashtirish hamda amaliy dasturlarni samarali amalga oshirish imkonini beradi. Yuridik bazaning shakllanishi bilan bir qatorda, yoshlar siyosatining nazariy asoslari ijtimoiy fanlar va davlat boshqaruvi nazariyasi doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar orqali mustahkamlanadi. Nazariy tadqiqotlar yoshlarning rolini, ularning jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasini va siyosat mexanizmlarining samaradorligini o'rganadi. Masalan, yoshlar siyosati institutsional rivojlanishi, huquqiy kafolatlar va xalqaro tajriba kontekstida O'zbekiston modeli tadqiq qilinmoqda, bu esa yoshlar siyosatining nazariy asoslarini yanada boyitadi.

Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston yoshlar siyosatini tizimli ravishda amalga oshirishga katta e'tibor qaratdi. 1997-yilda qabul qilingan ilk "Yoshlar dasturi" mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini aniq chora-tadbirlar bilan mustahkamlashga yo'naltirilgan edi. Ushbu dastur yoshlarga ta'lim, bandlik, ijtimoiy himoya va madaniy rivojlanish sohalarida amaliy yordam ko'rsatishni nazarda tutadi. Shu davrdan boshlab, davlat tomonidan yoshlarning har tomonlama rivojlanishi va qo'llab-quvvatlanishiga doir dasturlar tizimli ravishda ishlab chiqila boshladi. 2003-yildan boshlab, yoshlar siyosatini takomillashtirish maqsadida bir qator davlat dasturlari qabul qilindi. Jumladan, "Yoshlar yili" dasturi va hududiy yoshlar markazlari faoliyati mamlakat bo'ylab yoshlarning bandligini oshirish, kasb-hunarlarini egallash hamda ijtimoiy faolligini kuchaytirishga xizmat qildi. Ushbu dasturlar Prezidentning yoshlar bilan ishlashga doir qarorlari bilan muvofiqlashtirilib, markaziy va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan amalga oshirildi. Yoshlar dasturlarining samarali amalga oshirilishi uchun hukumat tomonidan turli institutlar tashkil etildi [4]. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Yoshlar siyosati bo'yicha

departamenti, Yoshlar ittifoqi va hududiy yoshlar markazlari yoshlar bilan ishlash tizimini yagona strategik yoʻnalish boʻyicha muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Bu institutlar yoshlarga doimiy maslahatlar berish, ularning muammolarini aniqlash va ularni yechish, shuningdek, yoshlar tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish boʻyicha faoliyat yuritadi.

2017-yilda qabul qilingan “Yoshlar daftari” loyihasi yoshlarni manzilli qoʻllab-quvvatlashning innovatsion mexanizmi sifatida amalga oshirildi. Ushbu dastur orqali yoshlar bandligi, taʼlim olishi, tadbirkorlik faoliyatini boshlashi va ijtimoiy himoyaga muhtoj boʻlgan yoshlar maʼlumotlari yagona elektron tizimda qayd etiladi. Prezident nutqlarida taʼkidlanganidek, bu mexanizm yoshlar siyosatini zamonaviy, shaffof va natijaviy boshqarishga xizmat qiladi. Davlat dasturlarining ijrosi faqat markaziy darajada emas, balki hududiy va tarmoqlar kesimida ham amalga oshiriladi. Masalan, Qoraqalpogʻiston Respublikasi va Toshkent, Samarqand, Namangan kabi viloyatlarda yoshlar markazlari faoliyati hududiy dasturlar bilan integratsiyalashgan. Bu esa dasturlar ijrosining hududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali ishlashini taʼminlaydi. Shuningdek, mahalliy hokimiyat organlari va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik orqali dasturlarni monitoring qilish va natijalarni baholash mexanizmi ishlab chiqilgan.

Oʻzbekiston Respublikasida yoshlarga oid dasturlarni shakllantirishda Prezidentning tashabbuslari asosiy yoʻnalishlarni belgilaydi. Masalan, “Besh muhim tashabbus” va “Yoshlar yili” kabi dasturlar orqali yoshlarning taʼlim, bandlik, sogʻliqni saqlash, maʼnaviy-axloqiy rivojlanish va ijtimoiy faollik sohaslarida kompleks qoʻllab-quvvatlanishi taʼminlanadi. Shu bilan birga, davlat dasturlarini monitoring qilish va tahlil qilish boʻyicha maxsus tizim joriy etilgan, bu tizim orqali dasturlar samaradorligi baholanadi va kerak boʻlganda takomillashtirish choralari koʻriladi [5].

Oʻzbekiston tajribasida yoshlar siyosatini amalga oshirish mexanizmi quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat: normativ huquqiy bazaning mustahkamligi, Prezident va hukumat qarorlari bilan qoʻllab-quvvatlash, hududiy va tarmoq institutlari faoliyati, yoshlar bilan bevosita ishlash mexanizmlari, shuningdek, dasturlar samaradorligini baholash tizimi. Bu mexanizmlar birgalikda yoshlarga oid dasturlarni zamonaviy, natijaviy va muvofiqlashtirilgan tizimda amalga oshirish imkonini beradi.

Oʻzbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat dasturlarining ijtimoiy-iqtisodiy natijalari mamlakatning ijtimoiy taraqqiyoti va mehnat bozorining barqarorligi uchun muhim omil hisoblanadi. Yoshlar siyosatining ijtimoiy komponenti jamiyatda yoshlarning ijtimoiy himoyasini taʼminlash va ularning boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni oʻz ichiga oladi. Prezident nazarda tutganidek, yoshlar nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va ijtimoiy sohalarda ham faol ishtirok etishi lozim. Yoshlar bandligini taʼminlash mamlakatda yoshlarga oid siyosatning muhim ijtimoiy-iqtisodiy yoʻnalishlaridan biri boʻlib kelmoqda. Oʻzbekiston aholisining yarmidan koʻprogʻi 30 yoshgacha boʻlgan yoshlardan tashkil topib, bu demografik ustunlik mamlakatning ijtimoiy salohiyatini oshiradi va yoshlarga oid dasturlarning samaradorligini yuqori darajada taʼminlashni talab qiladi. Yoshlar bandligi boʻyicha rasmiy statistik maʼlumotlarga koʻra, taʼlimni davom ettirmagan yoki ish bilan band boʻlmagan yoshlar nisbati sezilarli darajada kamaymayotgan boʻlsa ham, davlat tomonidan qabul qilingan dasturlar hanuz mehnat bozorida ularning oʻrnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Davlat dasturlari yoshlar uchun ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirdi va bu yoʻnalishda turli dasturlar orqali ijobiy natijalarga erishildi. Masalan, “Yoshlar va biznesni qoʻllab-quvvatlash yili” kabi dasturlar orqali yoshlarning tadbirkorlik salohiyatini oshirish, taʼlim imkoniyatlarini kengaytirish hamda ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashni kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar joriy qilindi. Bu yoʻnalish yoshlarni biznes boshlash, kasb-hunar egallash va mehnat bozorida oʻz oʻrnini topishga koʻmaklashadi [6].

Yoshlarning ijtimoiy natijalari ham keng koʻlamda ijobiy oʻzgarishlarni koʻrsatmoqda. Masalan, 2024-yilda IELTS imtihonida yuqori ball olgan yoshlar soni sezilarli darajada oshib, IELTS baholarining 5,5 va undan yuqori darajasidagi koʻrsatkichlar 2020-yildagiga nisbatan besh barobar koʻpayganligi qayd etildi. Bu natija yoshlar bilim darajasining oshishi va xalqaro platformalarda raqobatbardosh boʻlish salohiyatining ortganini koʻrsatadi. Shuningdek, yoshlar siyosati strategiyasining muhim iqtiboslaridan biri – Oʻzbekiston aholisining yoshi tuzilmasida

yoshlar ulushi juda yuqori bo‘lib, 14–30 yoshdagi aholining soni 9,6 millionni tashkil etadi. Bu demografik struktura davlat siyosatini yoshlar manfaatlarini yo‘lida shakllantirishning asosiy sabablaridan biri bo‘lib, yoshlarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotda faol qatnashuvi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Biroq, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni baholash jarayonida ayrim muammolar ham mavjud. Yoshlar mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishlari uchun zarur ko‘nikmalar yetishmasligi va ish bilan ta‘minlashdagi cheklovlar ularning iqtisodiy faolligini susaytiradi. Shu sababli davlat dasturlarini takomillashtirish va muddatli monitoring orqali samaradorligini oshirish zarurati mavjud. Shu bilan birga, mamlakatda yoshlarga oid dasturlar yoshlarga ijtimoiy, ta‘lim va madaniy hayotda qo‘shimcha imkoniyatlar yaratmoqda. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning innovatsion salohiyatini rivojlantirish va jamiyat hayotida faol ishtirokini kuchaytirish uchun kompleks chora-tadbirlar davom ettirilmoqda. Natijada, yoshlarga oid davlat dasturlari ijtimoiy-iqtisodiy natijalarga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Yoshlar bandligini ta‘minlash, ularning bilim va ko‘nikmalarini oshirish hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish borasida sezilarli yutuqlar mavjud. Shu bilan birga, mehnat bozoridagi raqobat, yoshlar uchun yuksalta oladigan iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish zarurati davlat siyosati doirasidagi ustuvor yo‘nalish bo‘lib qoladi.

O‘zbekiston Respublikasi yoshlarga oid davlat dasturlarini takomillashtirishning muhim yo‘nalishlarini aniqlash va ularni samarali amalga oshirish borasida muntazam ish olib bormoqda. Yoshlar mamlakatning asosiy demografik resursi sifatida katta salohiyatga ega bo‘lishini inobatga olgan holda, ularning ijtimoiy hayotga integratsiyasi, mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishi hamda ilmiy, ijodiy va tadbirkorlik salohiyatini oshirish ustuvor vazifaga aylangan. Bugungi kunda yoshlarga oid siyosat keng qamrovli dasturlar orqali ijtimoiy va iqtisodiy yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda, biroq takomillashtirish uchun bir qator dolzarb masalalar mavjud. Avvalo, yoshlarning mehnat bozorida samarali ishtirok etishini taminlash muhim strategik yo‘nalish hisoblanadi. Mamlakatda har yili taxminan 600000 yosh mehnat bozoriga kiradi va keyingi o‘n yillikda bu ko‘rsatkich 1 millionga yetishi kutilmoqda, bu esa bugungi kunda yoshlar bandligi siyosatini yana ham intensivlashtirishni talab etadi [7]. Yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish uchun qo‘shimcha dasturlar, xususan tadbirkorlikni rag‘batlantirish, startaplarni qo‘llab-quvvatlash va malaka oshirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar ustuvor bo‘lishi lozim.

Ikkinchi muhim yo‘nalish – yoshlarni kasb-hunar va ta‘lim tizimi orqali ta‘minlash. Ta‘lim va malaka oshirish yoshlarning ish bozorida raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Xususan, yoshlarga ajratilgan kreditlar 4 trillion so‘mga yaqin bo‘lib, bu mablag‘lar yordamida 150000 dan ortiq tadbirkorlik loyihalari yo‘lga qo‘yildi va 325000 dan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi<sup>1</sup>. Bu ko‘rsatkichlar yoshlar uchun iqtisodiy salohiyatni oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, yoshlar uchun ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash resurslarini kengaytirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Masalan, “Yoshlar daftari” orqali 798000 nafar yoshlarga turli ko‘maklar taqdim etilgan bo‘lib, ayni paytda 53000 talabchan talabalarning o‘qish xarajatlari qoplanmoqda. Bu ehtiyojmand yoshlar uchun ta‘lim imkoniyatlarini kengaytiradi va ularning jamiyat hayotiga faol integratsiyasini kuchaytiradi.

To‘rtinchi muammo – yoshlar siyosatining hududiy tatbiqidir. Yangi boshqaruv tizimi yordamida 9500 mahallada yoshlar yetakchilari tayinlangan bo‘lib, ular yoshlarga ko‘maklashish va mahalliy darajada muammolarni hal etishda o‘rin tutmoqda. Bu mexanizm yoshlar siyosatini yanada manzilli olib borish imkonini beradi, biroq hududlar orasidagi imkoniyatlar farqi hozirgi kunda ham mavjud bo‘lib qolmoqda, bu esa davlat dasturlarini takomillashtirish uchun yangi strategiyalarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Beshinchi istiqbolli yo‘nalish – innovatsion va kreativ sohalarini kengaytirish. Mamlakatda ijodiy va kreativ iqtisodiyotning o‘sib borayotgani haqida ma‘lumotlar mavjud bo‘lib, bu yoshlarni o‘z ijodiy salohiyatini iqtisodiy jihatdan foydali faoliyatga aylantirishga ko‘maklashadi [8]. Tadbirlar, startaplar va kreativ parklar orqali yoshlarni innovatsion tarmoqlarga jalb qilish davlat dasturlarining istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, ijtimoiy va iqtisodiy tizimni takomillashtirishga qaratilgan monitoring mexanizmlari ham rivojlantirilmoqda. Masalan, yoshlarning mehnat bozorida to'g'ri joylashuvini ta'minlash, bandlikni oshirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini optimallashtirish uchun statistika va monitoring tizimlari kengaytirilmoqda. Bu esa davlat dasturlarining ijrosini real vaqt rejimida baholash va kerak bo'lganda ularni yangilash imkonini beradi.

**4. Xulosa.** O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat dasturlari mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, dasturlar yoshlarni mehnat bozoriga integratsiya qilish, ularning bilim va malakasini oshirish, shuningdek, ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, yoshlarning innovatsion, madaniy va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, hududiy imkoniyatlar farqlarini bartaraf etish va samarador monitoring tizimini yo'lga qo'yish dasturlar samaradorligini oshiradi. Kirish va asosiy bo'limlarda ko'rsatib o'tilganidek, yoshlar bandligini oshirish, tadbirkorlik va startap loyihalarini rag'batlantirish, malaka oshirish kurslarini joriy etish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish kabi chora-tadbirlar dasturlar samaradorligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar sifatida e'tirof etilgan. Yoshlarning aholi tarkibidagi yuqori ulushga ega ekanligi esa davlat siyosatini yoshlar manfaatlariga yo'naltirishning muhim omili bo'lib qolmoqda.

Yoshlarga oid davlat dasturlari amaliy natijalar nuqtai nazaridan samarali bo'lsa-da, biroq ularning takomillashtirilishi zarurati ham mavjud. Ushbu takomillashtirish yoshlarning ish bilan ta'minlanishini kuchaytirish, ta'lim va kasb-hunar tizimini rivojlantirish, ijtimoiy va innovatsion imkoniyatlarni kengaytirish, hududiy tafovutlarni kamaytirish hamda dasturlar monitoringini takomillashtirish yo'nalishlariga qaratilishi lozim. Shu orqali mamlakatda yoshlarning jamiyat hayotida faol ishtiroki ta'minlanadi va ularning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy salohiyati to'la ro'yobga chiqariladi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan tadqiqot natijalari shuni isbotlaydiki, yoshlarga oid davlat dasturlarini samarali amalga oshirish va takomillashtirish orqali O'zbekiston yoshlarning kelajakdagi rivojlanishi va barqaror ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashga erishishi mumkin.

#### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. (Mirziyoyev Sh.M. Strategy of the New Uzbekistan. – Tashkent: Uzbekistan, 2021.)
2. O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 20-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi O'zRQ-429-XII-son qonuni. (Law of the Republic of Uzbekistan No. UzRQ-429-XII dated November 20, 1991 "On the Fundamentals of State Policy on Youth in the Republic of Uzbekistan"). <https://lex.uz/uz/docs/-140894?ONDATE2=18.12.2004&action=compare>
3. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zRQ-406-son qonuni. (Law of the Republic of Uzbekistan No. UzRQ-406 "On State Youth Policy" dated September 14, 2016.) <https://lex.uz/docs/-3026246?ONDATE=26.01.2022>
4. Prezident Sh.M. Mirziyoyevning "Yoshlar yili" dasturi to'g'risidagi farmoni, 2017 y. <https://president.uz/uz/lists/view/101>
5. "Yoshlar daftari" loyihasi bo'yicha rasmiy ma'lumotlar. <https://yoshlar.uz/uz/news/official/117>
6. <https://yoshlarovozi.uz/oz/news/category/yoshlar-siyosati>
7. New opportunities for young people": [https://yuz.uz/en/news/yoshlar-uchun-yangi-imkoniyatlar-belgilandi?utm\\_source=chatgpt.com](https://yuz.uz/en/news/yoshlar-uchun-yangi-imkoniyatlar-belgilandi?utm_source=chatgpt.com)
8. <https://china.mfa.uz/news/>

# ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
LOOK TO THE PAST

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000